



TALABALARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH
JARAYONINI TASHKIL ETISH.

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich

Andijon davlat universiteti Psixologiya va

pedagogika kafedrası dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Israilov Qahramonjon Maribovich

Turon universiteti Andijon filiali 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot talabalarda kreativlikni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik asoslari, tamoyillari va amaliy mexanizmlarini yoritishga qaratilgan. Ishda kreativlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar (o'quv muhiti, motivatsiya, hamkorlik, erkin fikrlash), zamonaviy yondashuvlar (muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, design thinking, refleksiya) hamda baholash mezonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatni integratsiyalash, kreativ topshiriqlar tizimini yaratish, o'qituvchining fasilitatorlik roli va talabaning mustaqil ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'llari taklif etiladi. Natijada kreativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-model va metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodiy fikrlash, kreativ kompetensiya, muammoli ta'lim, loyiha metodi, o'quv muhiti, refleksiya, baholash mezonlari.



Аннотация : Данное исследование посвящено **организации процесса развития креативности у студентов** в условиях современного образовательного пространства. Рассматриваются педагогические основы и факторы формирования креативности: учебная среда, мотивация, сотрудничество, свобода выражения идей, поддержка самостоятельности. Анализируются эффективные подходы и технологии (проблемное обучение, проектная деятельность, дизайн-мышление, рефлексия), а также критерии и инструменты диагностики творческого потенциала. Особое внимание уделяется роли преподавателя как фасилитатора, построению системы креативных заданий и интеграции аудиторной и внеаудиторной активности. В результате предлагаются модель организации процесса и методические рекомендации, направленные на развитие креативной компетентности студентов и повышение качества образовательных результатов.

Ключевые слова: креативность, творческое мышление, креативная компетентность, проблемное обучение, проектный метод, образовательная среда, рефлексия, оценивание.

Abstract: This study focuses on **organizing the process of developing students' creativity** within contemporary higher education. It examines pedagogical foundations and key determinants of creativity growth, including learning environment, intrinsic motivation, collaboration, autonomy support, and psychological safety. The paper analyzes effective instructional approaches and methods such as problem-based learning, project-based learning, design thinking, and systematic reflection, as well as assessment criteria and tools for measuring creative potential and outcomes. Special attention is given to the instructor's role as a facilitator, the design of a coherent system of creative tasks, and the integration of in-class and extracurricular learning activities. The study ultimately proposes an

organizational model and practical methodological recommendations aimed at strengthening students' creative competence and improving educational effectiveness.

Keywords: creativity, creative thinking, creative competence, problem-based learning, project-based learning, learning environment, reflection, assessment.

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi oʻzida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid maʼlumotlarga eʼtiborsiz boʻlmaslik;
- 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Kreativlik: shaxsning anʼanaviy fikrlashdan farqli ravishda maʼlum xatti-harakat, faoliyat yoki jarayonni samaradorligi taʼminlashga xizmat qiluvchi yangi gʻoyalarni yaratish, shuningdek, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga boʻlgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati sanaladi.

Shaxsning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning oʻz-oʻzini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir shaxsning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon boʻladi.

Kreativ potensial bilish jarayoniga yoʻnaltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, anʼanaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi gʻoyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, oʻziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli boʻlishda aks etadi.

Odatda oʻquvchining kreativlik qobiliyatiga ega boʻlishi muayyan muammolarni hal qilishga intilishi, kichik ilmiy-tadqiqotlarini amalga oshirishi va bu jarayona qiziqish doirasi bir xil boʻlgan tengdoshlar bilan oʻzaro ijodiy hamkorlikka erishishi muhim ahamiyatga ega.



Talabalar o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Ularning ijodkorlik qobiliyatlari ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustilarida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday shaxsda bo'lgani kabi kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun ta'limning xuddi shu davrida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda talabalarning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishlari va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishlari muhim ahamiyatga ega. Shaxs ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchi o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

M.Csikszentmihalyi (1996) kreativ insonlar ikki toifaga bo'linadi, degan fikrda, ya'ni "katta K" – bular faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilardan bo'lib, doimo o'zgarishlar sodir etishga intiladi, "kichik K" – bular o'z kreativlik ko'nikmalaridan faqat kundalik hayotda va foyda keltirishi uchun foydalanadi. Ko'plab talabalar o'zlarini kreativ emasmiz, deb biladi; kreativlik ular yetisha olmaydigan orzuday va faqatgina iqtidorli insonlar kreativ bo'lishi mumkin, degan fikrga ega. Ular kreativlik bu faqat "katta K" toifasiga kiruvchi insonlar yoki san'at sohasida tahsil olayotgan yoki o'quv-bilish faoliyatini tashkil etayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadi. Talabalar, qachonki, kreativ bo'lish uchun "katta K" toifasiga kiruvchi shaxs bo'lish shart emasligini tushunsalar, kreativlik ular uchun ega bo'lish mumkin

bo‘lgan ko‘nikmaga aylanadi. Bunday fikr natijasida talabalar o‘zlarini kamroq “ezilgan” sezib, yangidan yangi g‘oyalar bilan o‘zlarini namoyon etishlari mumkin va kundan kunga dars jarayonida interfaol vazifalarni bajarishda faol qatnashishga bo‘lgan qiziqishlari ortib, ko‘rsatkichlari ham yuqoriga ko‘tariladi. Ular o‘zlariga baland baho berishni boshlaydi va kreativlik sohasida bundan ham yuqori ko‘rsatkichlarga erishishga intiladi. Talabalar kreativ tafakkur imkoniyatlaridan qancha ko‘p foydalansalar, shuncha ko‘p faol bo‘ladi.

Kreativ darslar talabalarga hayajon va qiziqishni singdiradi, ya’ni, talabalarda qiziqish ortgani sari, ular yanada ko‘proq harakat qiladi. Dweck (Duek)ning (2006) fikriga ko‘ra, talabalar harakat va faollik katta o‘zgarishlarga olib kelmasligiga ishonish odatiga egadir; ular ma’lum bir potensialga egaliklarini biladir, ammo bu hech narsani o‘zgartirmasligiga ishonadi; shuning uchun ham ularni hamisha yutuqlari uchun emas, balki muvaffaqiyatsizliklari uchun baholash xavfli sanaladi. Aksincha, o‘zlari haqida yuqori bahoga ega bo‘lgan talabalar o‘zlarida ko‘nikma va iqtidorning rivojlanishiga ishonadi. Bunday talabalar odatda murakkab ishlarda faol qatnashadi va o‘zlarini namoyon eta oladi ham. Bordi-yu, xato qilsalar, undan xulosa chiqarib, o‘sisda davom etadi. Bunday fikrlash odatiga ega talabalar kirishimliroq va kreativlik ko‘nikmasidan foydalanishga moyil bo‘ladi.

Kreativ tafakkurga ega talabalar:

- Boshqa talabalarning xayollariga kelmagan g‘oyalarni ilgari suradi.
- O‘zlarini namoyon etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi.
- Ba’zan mavzuga aloqasi bo‘lmagan yoki “qitmir” savollarni beradi.
- Yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi.
- Dalillardan ko‘ra g‘oyalarni muhokama qilishni afzal ko‘radi.
- Muammo yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.



Shunday qilib, kreativ tafakkur insoniyatga xos tafakkurning turlaridan biri bo‘lib, uning yordamida voqea, hodisalarning mohiyati o‘zgacha, o‘ziga xos ko‘rinish va mazmunda talqin etiladi. Kreativ tafakkurga ega bo‘lish orqali shaxs turli murakkab vaziyatlarda muammoni oson hal qilish, undan chiqib bilishni uddalaydi. Qolaversa, kreativ tafakkur ijtimoiy sub’ekt tomonidan mavjud bilimlarni nihoyatda oson, hech bir qiyinchiliklarsiz o‘zlashtira olish imkonini beradi.

Kreativ faoliyat boshlang‘ich sinf talabalarini har tomonlama uyg‘un rivojlantirishning muhim omili sifatida ularning axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Aynan ijodiy faoliyatga samarali tayyorlangan talabalar iqtidorlilikning quyidagi mezonlariga javob beradi: aqliy rivojlanishning jadalligi: bilishga qiziqish, kuzatuvchanlik, nutq, onglik, nostandart fikrlash; qiziqish, intellekt, emotsiyalarning erta ixtisoslashuvi: matematika, musiqa, tasviriy faoliyat, injenering, chet tillarni o‘rganish; bilish faolligi, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyati, qat’iylik, qo‘yilgan maqsadga erishishga intilish; amaliy faoliyatga tayyorlik va qobiliyatlilik.

Kreativ jarayon o‘zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri – intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi – intuitiv fikrlash jarayonida qo‘lga kiritirilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan va intuitiv va mantiqiy fikrlash birligi sifatida mantiqiy fikrlash vositasida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorligining barcha ko‘rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq shakllarida mutlaq o‘z aksini topadi.

Kreativ faoliyat – bu sub’ekt faoliyatining o‘z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi



holatga mustaqil ko‘chirish, muammoli, ma’lum ob’ektni yangi funksiyasini ko‘ra bilish) jarayonidir.

Kreativ faoliyat o‘zida quyidagi muhim jihatlarni aks ettiradi: bir fan va fanlar doirasida egallangan bilim va ko‘nikmalarni yangi faoliyat tajribasiga mustaqil tatbiq etish; kutilmagan vaziyatdagi yangi muammoni ko‘ra bilish; ob’ekt tuzilishini ko‘ra bilish; muammoni hal etishda muqobillikni hisobga olish; yangi muammolarning yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma’lum bo‘lgan usullari bilan uyg‘unlashtirish; muammolarni hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirish.

Kreativ faoliyat jarayoni bu mustaqil o‘quv-bilish faoliyatining eng yuqori darajada namoyon bo‘lishi bo‘lib, u o‘zgaruvchan tavsifga ega bilim, ko‘nikma va muayyan ijodiy faoliyat tajribasi hamda bilishning ijobiy motivlari sharoitida yuzaga kelishi hamda shu asosda talabalarining ijodiy faoliyat tajribalarini egallashini ko‘rsatdi. Bu esa, boshlang‘ich sinf talabalarida ijodiy bilish faolligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf talabalarining kreativ faolligi o‘zida yangi bilimlarni o‘zlashtirishga barqaror motivlar va bilish jarayoniga ijobiy emotsional yo‘nalganlikning qaror topganligi, o‘quv vazifalarini hal etishda odatiy o‘quv harakati usullarini bartaraf etishga intilish, muammo yechimini topishning nostandart metod va usullarini izlash, o‘quv-bilish faoliyatidagi qat’iylilik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi bilan tavsiflanuvchi shaxs xususiyatini o‘zida aks ettiradi.

Boshlang‘ich sinf talabalarida kreativlikni rivojlantirish tuzilmasi ko‘plab komponentlardan iborat dinamik tizimi sifatida talqin qilindi. Mazkur tizim o‘quv faoliyati jarayonida rivojlanib, qayta tashkillanib boradi. Har bir tarkibiy qism ularning o‘zaro aloqadorligini ochib berishga xizmat qiluvchi o‘zining mazmuniga ega. Shuningdek mazkur tuzilma boshlang‘ich sinf



talabalarida kreativlikni rivojlantirishga kreativ muhit va psixologik-pedagogik hamkorlik katta ta'sir ko'rsatishini ham ko'rsatib beradi. Kreativ muhit o'zida talabalarning kreativligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi mikro, makro va megoomillarni aks ettiradi. Ya'ni, talabalarning kreativligiga ota-onalar, talabalar, do'stlar, sinf, maktab va u yashaydigan mahalla ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya tizimida "gender" tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o'z xususiyatiga ko'ra o'g'il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab beradi. Mazkur tushuncha ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalarning jinsiy mansubligiga asoslanib taqsimlangan o'quv faoliyatining bajarilishini ifodalaydi. Pedagogikada bunday yondashuvning qaror topishi o'g'il va qiz bolalarga istiqbolda – mikrosotsiumda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan o'zligini namoyon qilish imkonini beradigan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Tahlillar asosida boshlang'ich sinf talabalarida kreativlikni rivojlantirishga gender yondashuvni tatbiq etishning quyidagi o'ziga xosliklari aniqlashtirildi:

1. Demokratlik. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ijtimoiy hayotda ularning teng huquqligini ta'minlaydi, ular biri-biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi, hamkorlik munosabatlari asosida birgalikda harakat qilishadi.
2. Tabiat bilan uyg'unlik. O'g'il va qiz bolalarning shaxsiy tengligi hayotiy faoliyat jarayonida ularning biologik va fiziologik o'ziga xosliklari va farqlarini inkor etilishini bildirmaydi. Farlarning qabul qilinishi o'z jinsining vakili sifatida ijtimoiy-madaniy faoliyatda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishlari uchun ta'limning turli shakl, metod va vositalaridan foydalanishni talab etadi;
3. Vaqt me'yorlariga rioya qilish. Ta'limga gender yondashuvda tarbiyachi va ota-onalar harakatining birligi muhim ahamiyat kasb etadi.



Mazkur qoida oila bilan o‘zaro birgalikdagi faoliyat ta’lim va tarbiyaning maqsad, vazifalariga mos ravishda bolalarga talab va hurmatning birligi, bola huquqlarini hurmat qilishni talab etadi.

Ta’limning dastlabki kunlaridanoq rivojlanishini harakatga keltiradigan turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zahirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. Talablarning taboro ortishi psixik jihatdan to‘xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi va shu rivojlanish zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Ta’lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish talabaning o‘z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu his talabaning rag‘batlantirishi bilan namoyon bo‘ladi va o‘quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ehtiyojini shakllantiradi. Talabada paydo bo‘lgan faxrlanish, o‘z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o‘zlashtirish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi, rag‘batlantirish va jazolash me‘yorida bo‘lsagina, ularning tarbiyaviy ta’siri ortadi.

Talabalarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi talaba shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham talabaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati juda kattadir. Talaba talabani aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi. Talaba siymosida o‘zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg‘ularini ruyobga chiqaruvchi mu’tabar shaxsni ko‘radi. Talabaning obrusi oldida ota-onalar, oilaning boshqa a’zolari, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli talabalar talabasining har bir so‘zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Ta’lim jarayonida talaba o‘zining obro‘sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalanib, talabalarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o‘qishga



ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati talabalarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi; talabalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lemi kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy, ahamiyatini angalsh tuyg'ulari tarkib topadi.

Talabalarning muhim vazifalaridan biri talabalarda materiallarni eslab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo'llarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rganishdan iboratdir.

Bu vazifani eng avvalo psixologlari qatorida talabalari amalga oshirishlari shart. Tafakkur atrof-muhitdagi voq'elikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi jarayon.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini - o'zi nazorat qilish, o'rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirish, esga tushurish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar talabalarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Lekin talabalar materiallarni eslashni xush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.



Ta'lim jarayonida talabalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvurlari fikr yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy tasavvurni takomillashtiradi. Ijodiy tasavvur eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliigi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayri tabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa talabalarda hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada u taassurot qurshovidan qutuladi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi.

Xulosa qilib aytganda ushbu jarayonlar bilan talabalardan zamonaviy interfaol ta'limga qiziqish yanada ortadi, ularda kreativ fikrlash yanada takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Guilford, J. P. **Aqlning tuzilishi (Structure of Intellect) nazariyasi.** — Ilmiy maqolalar to'plami asosida (tarjima manbalari).
2. Torrance, E. P. **Kreativ fikrlashni o'lchash va rivojlantirish** (Torrance testlari konsepsiyasi). — Metodik manbalar (tarjima).
3. Amabile, T. M. **Kreativlikning komponentli modeli: motivatsiya va muhit omillari.** — Ilmiy tadqiqotlar asosida (tarjima).
4. Csikszentmihalyi, M. **“Oqim” (flow) va ijodiy faoliyat psixologiyasi.** — Nazariy manbalar (tarjima).



5. Vygotskiy, L. S. **Tafakkur va nutq. Ijodkorlik psixologiyasi bo'yicha qarashlar.** — Tarjima nashrlar asosida.
6. Bandura, A. **Ijtimoiy-kognitiv nazariya va o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy): ta'limdagi ahamiyati.** — Ilmiy manbalar (tarjima).
7. Dewey, J. **Tajriba va ta'lim: faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish g'oyalari.** — Tarjima nashrlar.
8. Kolb, D. A. **Tajriba asosida o'rganish modeli (Experiential Learning).** — Metodik manbalar (tarjima).
9. Bloom, B. S. (tahr.). **Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi: yuqori darajali fikrlash ko'nikmalari.** — Tarjima manbalar.
10. Runco, M. A. **Kreativlik nazariyalari va kreativ tafakkur.** — Ilmiy adabiyotlar (tarjima).
11. Robinson, K. **Ta'limda kreativlik va innovatsion yondashuvlar.** — Ommabop-ilmiy manbalar (tarjima).
12. **Muammoli ta'lim metodikasi: oliy ta'limda muammo asosida o'qitish bo'yicha qo'llanmalar.** — Metodik adabiyotlar.
13. **Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) metodikasi: talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish.** — Metodik qo'llanmalar.
14. **Design Thinking (dizayn tafakkuri) ta'limda: g'oya yaratish, prototiplash, sinovdan o'tkazish.** — O'quv-uslubiy manbalar.
15. **Kreativ kompetensiyani baholash: rubrikalar, portfel, reflektiv kundalik va diagnostik yondashuvlar.** — Metodik tavsiyalar.

